

## O'ZBEKISTON VA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI O'RТАSIDАГИ АЛОҚАЛАР

No'monov Saidahrор Ilhomjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va deplomatiya universiteti  
Xalqaro iqtisodiyot va menejment magistranti

[nomonovsaidahror@gmail.com](mailto:nomonovsaidahror@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolamizda moliyaviy tashkilotlarning ahamiyati va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, hamda O'zbekiston va Xalqaro moliya tashkilotlar o'rtaсидаги moliyaviy munosabatlarni yaxshilash masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** moliya bozori, moliyaviy tashkilotlar, moliyaviy munosabatlar, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy hamkorlik.

### KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiyotdagi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bu moliya bozorini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishdir. Moliya bozori iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotlarni oshirish, kapital jalg qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin. Jamiyat taraqqiyotida moliyaviy munosabatlarning o'rni esa beqiyosdir, zero, ular moliyaviy resurslarining harakati shakllanishi, taqsimlanishi va xalqaro moliya bozori institutlari hamda moliyaviy institutlar va tashkilotlar tomonidan ishlatalishiga asoslangan tarkib bo'yicha murakkab bo'lgan munosabatlar tizimidir. [1] Shu sababli, hozirgi vaqtda kelib, O'zbekiston bilan ko'plab moliya tashkilotlar iqtisodiy munosabatlar keng yo'lga qo'yilib va samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda. Bu xalqaro moliya tashkilotlari O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy sohalariga bir qator investitsiyalar kiritgan. Investitsion loyihibar soni ko'p va hamkorlik aloqalarini mustamkamlash doimiy ravishda e'tibor qaratilishi lozim. Sababi shundaki, xalqaro bozorga chiqish, davlatning eksport salohiyatini oshirish,

aholining ijtimoiy qo‘llab quvvatlash, hamda ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini yaxshilash uchun xalqaro moliya institutlarini bilan aloqalarni rivojlantirish vazifalardan biri hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA**

Xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar (XMT) mamlakatlar milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o`ynamoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan 2017 yildan buyon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirishda xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. O`zbekistonning Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari yangi tarixiy bosqichga ko`tarildi. Davlatimiz rahbarining respublikadagi XMT faoliyatiga munosib munosabatining yana bir misoli – O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi tashkil etilishidir. Kengash faoliyatining asosiy yo`nalishi – bu O`zbekistondagi qulay, shaffof va konstruktiv ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirish. 2017 yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar iqtisodiy o`sishning yangi omillarini faollashtirish – investisiya muhitini yaxshilash, eksport salohiyatini kengaytirish, tashqi savdoni faollashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Bu XMTlarning O`zbekistonga bo`lgan ishonchini mustahkamlashda o`z aksini topdi, bu esa yirik xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar va grantlar hajmining oshishiga olib keldi. Aholining farovonligini oshirish, kambag`allikni bartaraf etish, uy-joy bilan ta`minlash va kommunal xo`jaliklarni davlat tomonidan rekonstruksiya qilish bo`yicha amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlar va tadbirlar turmush tarzi, ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo`lgan energiya, suv ta`minoti, transport va kommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun katta hajmdagi investisiyalarni talab qiladi. Chunki xalqaro iqtisodiy hamkorlik uning sub`yektlari iqtisodiy manfaatlarini milliy chegaralardan

tashqarida ro‘yobga chiqarishning eng maqbul yo‘li hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va iqtisodiy integratsiyani har qanday shaklda amalga oshiradigan mintaqaviy tashkilotlar muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy fondlar va banklar ularga ma'lum darajada yordam beradi. Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga barqaror iqtisodiy

o'sishni ta'minlashda, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini shakllantirishda, ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirishda va odamlarning hayotini yaxshilashda yordam berishdir.

### Natijalar

Ichki imkoniyatlar cheklanganligi sababli XMT tomonidan ajratilgan kreditlar va grantlar infratuzilma, sanoat va qishloq xo`jaligi loyihibarini moliyalashtirish uchun ishlatalmoqda. Xususan, 2021 yil 1-yanvar holatiga ko`ra, jami davlat tashqi qarzining 17,5% yoki 3,7 mlrd. doll. davlat byudjetini qo`llab-quvvatlashga, 12,4% yoki 2,6 mlrd. doll. energetika sohasiga, 13,7% yoki 2,9 mlrd. doll. elektr energetika sohasiga, 11,5% yoki 2,4 mlrd. doll. transport va transport infratuzilmasi sohasiga, 11,0% yoki 2,3 mlrd. doll. esa uy-joy communal xo`jaligi sohasiga yo`naltirildi. Davlat tomonidan jalb qilingan tashqi qarzlarning asosiy qismi Osiyo taraqqiyot banki (5,0 mlrd. doll.), Jahon banki (3,7 mlrd. doll.) va Islom taraqqiyot bankiga (0,9 mlrd. doll.) to`g`ri keladi. Shuni ta`kidlash kerakki, tashqi qarz olish manbalarining diversifikasiyasini ta`minlandi va xorijiy davlat moliya institutlarining davlat tashqi qarzidagi ulushi 44,0% tashkil etadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlanirishni moliyalashtirishda va ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol rol o`ynagan XMT iqtisodiy vaziyat monitoringi va tahlilini amalga oshirib, doimiy ravishda uning rivojlanish istiqbollarini baholaydi. Bunday proqnozlarning ahamiyati shundaki, xalqaro tashkilotlar dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlari bo`yicha tahlil va proqnoz qilishda etarli tajribaga ega. Proqnoz yilining boshlanishidan yarim yil oldin, 2017-2019 yillarda O`zbekiston YaIM bo`yicha xalqaro moliya tashkilotlarining retrospektiv proqnoz baholarini taqqoslash inqirozsiz rivojlanish sharoitlarida XMT proqnozlarining yuqori aniqligini ko`rsatmoqda. Jahon

banki va Islom bankining prognoz baholari ushbu ko`rsatkichning 2017-2019 yillarga mo`ljallangan qiymatlaridan deyarli farq qilmadi. Osiyo taraqqiyot bankining prognoz bahosi faqat 2017 yilga kelib hisobot qiymatidan 2,5 foiz punktga oshdi, keyingi 2 yil davomida esa ushbu og`ishlar nolga teng bo`ldi. Fitch Ratings, Moody`s i Standart&Poor`s reyting agentliklarining prognoz baholarida ham odatiy o`ziga xos juda kichik og`ishlar bo`ldi. Bularning barchasi esa mamlakat va jahon iqtisodiyotining inqirozsiz rivojlanish davrida ushbu Xalqaro moliya tashkilotlarining prognoz baholarini etarlicha ishonchli deb hisoblashga imkon beradi.

### MUHOKAMA

Asosan, bugungi kunda O'zbekiston moliyaviy tashkilotlarini xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasida o'zaro moliyaviy munosabatlar o'rnatish mamlakat iqtisodiyotidagi eng muhim masaladir. Milliy va Xalqaro molyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalari bugungi kunda jadallahmoqda. Bu munosabat nafaqat puxta o`ylangan, balki bir vaqtning o`zida ildam va qulay bo'lishi hamda hozirgi tez o`zgaruvchan, dunyoda yuzaga kelishini oldindan aytib bo'lmaydigan yangi muammo va tahlikalarga o'z vaqtida va munosib javob berishi kerak. O'zbekiston xalqaro moliya tashkilotlari bilan moliyaviy munosabatlarini shakllantirishida va rivojlanishidagi asosiy omili:

- jahon bozorlarida o'zining o'rniga ega bo'lishi, ayniqsa tovar bozorlarida;
- Mamlakat iqtisodiy aloqalarning baynalminalashuvi va globallashuvi.
- Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda integratsiya jarayonlarining kuchayishi.
- Mamlakatning ilmiy-texnika taraqqiyotiga qo'shgan hissasi
- Xalqaro moliya munosabatlarining ko'p tomonlama va manfaatli tartibga solish va tizimini takomillashtirilishi.
- Mamlakatda transmilliy korporatsiya va banklar faoliyatini nazorat qilish va kengaytirilishi

Agar quyidagi omillar iqtisodiyot va xalqaro moliyaviy munosabatlarda o'z aksini topsa, mamlakating moliyaviy rivojlanish koeffisiyentga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekiston va Xalqaro moliya tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda, iqtisodiy-moliyaviy rivojlanish omillaridan kelib chiqib, yuqorida aytilgandik, puxta o'ylangan, vazmin, balki bir vaqtning o'zida ildam va qulay bo'lishi hamda hozirgi tez o'zgaruvchan, dunyoda yuzaga kelishini oldindan aytib bo'lmaydigan yangi muammo va tahlikalarga o'z vaqtida va munosib javob bera oladigan darajada bo'lishi kerak.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Byujdet kodeksi". T: "O'zbekiston" 2014.01.01
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzeyoyevning "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'grisida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 17.02.2017. [Https://lex.uz/docs/-310736](https://lex.uz/docs/-310736)
3. "J. X. Ataniyazov, E. D. Alim ardonoy xalqaro moliya munosabatlari"  
<https://fayllar.org/j-xataniyazov-e-d-alim-ardonoy-xalqaro-moliya-munosabatlari.html>
4. <https://uz.birmiss.com/xalqaro-moliyaviy-munosabatlar/>
5. <https://fayllar.org/xx-asr-80-yillari-ortalarida-respublikada-ijtimoiy-siyosiy-iqt.html>
6. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekiston-bilan-savdo-aylanmasi-eng-yuqori-bulgan-10-ta-davlat>
7. <https://m.mfa.uz/uz/cooperation/>